



SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHDA MAHALLABAY ISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xudoyberdiev Obiddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-0080-8490

o.xudoyberdiyev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida mahallabay ish tashkil etishni amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, mahallabay, korxonabay, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ МАХАЛЛЯБАЙ РАБОТЫ ПО РАЗРАБОТКЕ СТРАТЕГИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ

Худойбердиев Обиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье освещаются роль и значение межрайонной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой сфере страны и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. В то же время рассматриваются некоторые важные реформы в организации работы махалли в налоговой системе Узбекистана, изучается зарубежный опыт, разрабатываются научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, махаллябай, предприятие, налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

WAYS TO IMPROVE MAKHALLABAY WORKING MECHANISMS IN DEVELOPING TAX POLICY STRATEGY

Khudoyberdiev Obiddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article highlights the role and importance of interregional tax inspection in improving large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for conducting business activities in the tax sphere in the country and further strengthening the confidence of business circles. At the same time, some important reforms in the organization of makhallabay work in the tax system of Uzbekistan are studied, foreign experience is studied, scientific and practical conclusions and proposals are developed on its application in our country.

Keywords: tax policy, makhallabay, enterprise, tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyotida mahallabay ishi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, mahallabay ishi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan.

Aronov, Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko'ra, soliq to'lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib yetmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo'lmagligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to'siq bo'layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqishda mahallabay ishi mexanizmlarini dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni

amalgama oshirishning strategik va taktik yo'nalishlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda, hukumat tomonidan davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish, tadbirkorlik sohasidagi muammolarni bartaraf etish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish borasida bir qator islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent viloyatidagi tashrifi davomida soliq ma'murchiligini mahalla doirasida tashkil etish kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 22-iyulda "Mahallada soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi AF-44 sonli farmoyishi qabul qilingan.

Xabarlangiz bor, davlatimiz Rahbari tomonidan berilgan topshiriqlariga asosan, 9443 ta mahallaga soliq organlarining 4427 nafar xodimlari biriktirib, hududlardagi tadbirkorlarning soliq ma'murchiligi bilan bog'liq muammolarini o'rganish va joyida hal qilish bo'yicha yangi tizim bo'yicha ish boshladik.

Soliq soliq inspektorining asosiy vazifasi mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib soliq bazasini kengaytirish soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini ko'rsatish va soliqlarni undirishdan iborat.

Soliq qo'mitasi tomonidan, mahallaga biriktirilgan soliq inspektorlarini faoliyati samaradorligini baholovchi (KPI) "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" Axborot tizimi ishlab chiqildi.

Axborot tizimdagi ma'lumotlar onlayn ravishda har soatda yangilanib turadi, shuningdek, shu asosida mahallaga biriktirilgan inspektorlarning oldiga kunlik vazifalar belgilab berilmoqda.

Axborot tizimida soliq inspektorini faoliyati samaradorligi (KPI) 21 ta mezon orqali baholab borilmoqda.

Yangi tizim ishga tushishi natijasida 2023 yil yakuni bilan:

-45 394 ta tadbirkorlik sub'ektlarini faoliyati qonuniylashtirildi;

-20 748 ta tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tiklandi;

-416 713 ta fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

-606,5 mlrd so'm qo'shimcha manba byudjetga jalb qilindi (AOSga 65,3 mlrd so'm, JShShODS 459,1 mlrd so'm, Jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk solig'i 82,1 mlrd so'm):

Shuningdek, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha tushum 2022-yilning mos davriga nisbatan 2023-yilda 1,9 baravarga (721,5 mlrd.so'm), Aylanmadan olinadigan soliq 1,2 baravarga (82,3 mlrd.so'm) va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1,1 baravarga (739,7 mlrd so'm) oshishiga erishildi.

Xuddi shundan 2024-yil yanvar oyida byudjetga 35,7 mlrd so'm qo'shimcha manba jalb qilindi.

"Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimidagi ma'lumotlarga asosan, 2023-yil dekabr oyi yakuni bilan Respublikaning samaradorlik ko'rsatkichi 91,1 ballni tashkil qilib, Toshkent shahri (95,2 ball), Samarqand (94,8 ball) va Surxondaryo viloyatlari (93 ball) yashil hududda yoki yuqori ko'rsatkich qayd etdi.

Respublika bo'yicha 74 ta (35,6 foiz) soliq inspeksiyalarining samaradorlik ko'rsatkichi 95 balldan yuqori, shundan, 32 ta (15,4 foiz) inspeksiyada 100 ballik natija qayd etildi.

Mazkur samaradorlik ko'rsatkichi 95 balldan yuqori bo'lgan hududlar salmog'i Qoraqalpog'iston Respublikasida 82,4 foizni (16 ta inspeksiyadan 14 ta), Samarqandda 69 foizni (16 ta inspeksiyadan 11 ta), Jizzaxda 62 foizni (13 ta inspeksiyadan 8 ta) tashkil etdi.

Xodimlar kesimida tahlil qilinganida 1 692 nafar (38,2%) inspektorning samaradorlik ko'rsatkichi 95 va undan yuqori ball, shundan 927 nafari 100 ballik natijaga erishdi (ushbu ko'rsatkich 2023 yil noyabr oyida 461tani tashkil qilgan).

Shu bilan birga, 37 nafar inspektor 70 va undan past ball natijaga erishgan, shuningdek 8 tasi 2023-yilning noyabr oyida ham samaradorlik ko'rsatkichi 70 balldan past natijani qayd etgan.

Joriy yilning 1 fevral holatiga Respublika bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi 87,3 ballni tashkil etgan bo'lsa, Andijon (78,5 ball), Samarqand (82,1 ball), Farg'ona (83,8 ball), Namangan (83,8 ball) va Jizzax viloyatlari (85 bal) "qizil" zonada yoki eng yomon hudud sifatida qolmoqda.

Samaradorlik ko'rsatkichlari 170 ta tuman (shahar)da 75-90 ballni tashkil etgan bo'lsa, 7 ta inspeksiyada 75 ballga ham yetmagan.

Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar oyi uchun soliq turlari bo'yicha belgilangan jami 995,0 mlrd so'mlik prognoz ijrosi 1 fevral holatiga 815,5 mlrd so'mga yoki 82,0 foizga bajarilgan bir paytda, Andijonda 58,7 foizga, Samarqandda 65,3 foizga, Farg'onada 73,7 foizga, Namanganda 73,9 foizga hamda Jizzaxda 80,9 foizga ta'minlangan xolos.

Prognoz ijrosi 81 ta tuman (shahar)da Respublika ko'rsatkichidan past natija qayd etilayotgan bo'lsa, 16 ta soliq inspeksiyasida esa 60 foizga ham yetmagan.

Xususan Andijonda Asaka tumani samaradorlik ko'rsatkichi 75,0 ballni, prognoz ijrosi 52 foizni Sirdaryoda Sayxunobod tumani samaradorlik ko'rsatkichi 77,5 ballni, prognoz ijrosi 59 foizni, Farg'onada Qo'qon shaharda samaradorlik ko'rsatkichi 80,8 ballni, prognoz ijrosi 52 foizni, Samarqandda Samarqand shaharda samaradorlik ko'rsatkichi 84,2 ballni, prognoz ijrosi 48 foizni, Respublikada eng yomon natija qayd etmoqda.

Xodimlar kesimida tahlil qilinganida, Respublika bo'yicha mahallalarga biriktirilgan 4 384 nafar xodimdan atigi 147 nafarining samaradorlik ko'rsatkichi 95 balldan yuqori natija qayd etgan bo'lsa, 119 ta xodimning ko'rsatkichi 70 ballga ham yetmagan.

Samaradorlik ko'rsatkichi 95 balldan yuqori natijaga erishgan xodimlar Surxondaryoda 34 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 23 ta bo'lsa, Samarqandda, Toshkent shaharda, Navoiyda 1 nafardan xodim 95 balldan yuqori natijaga erishgan.

Yuridik shaxs sifatida tadbirkorlik faoliyatini yuritish istagida bo'lganlar dastlab davlat xizmatlari markaziga onlayn yoki tashrif buyurgan holda murojaat etishlari va davlat ro'yxatidan o'tishlari lozim.

Bunda ro'yxatdan o'tish jarayonida ularning ixtiyoriga ko'ra QQS va AOS to'lovchilari sifatida soliq to'lash rejimi tanlanadi. Shundan so'ng tadbirkorik faoliyatini yuritishlari bilan bir qatorda soliq hisobotlarini ham taqdim etib boradilar.

Avvallari har bir soliq to'lovchi tomonidan soliq bazasi hisobi mustaqil ravishda yuritilib, soliq hisobotlari taqdim etilgan bo'lsa bugungi kunda "Soliqchi- tadbirkorga ko'makchi tamoyili" asosida ularga qulayliklar yaratish maqsadida soliq hisobotlari avtomat tarzda shakllantirib berilmoqda.

Misol uchun, kadastr organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i, onlayn nazorat kassa mashinalari va elektron hisob faktura ma'lumotlari asosida AOS v QQS soliqlari avtomat tarzda shakllantirib berilmoqda.

Bunda, soliq to'lovchi shaxsiy kabinetiga kirgan holda soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisobotlarini ko'zdan kechiradi va e'tirozlari mavjud bo'lmagan hollarda klarni tasdiqlash orqali soliq hisobotlarini taqdim etadi.

E'tirozlari mavjud bo'lgan hollarda tegishli tuzatishlar kiritish va soliq hisobotlari qayta taqdim etish imkoniyati mavjud.

Resurs soliqlari ya'ni mol-mulk, yer va suv soliqlari hisoboti yilda bir marotaba, foyda solig'i har chorakda va qolgan soliq turlari bo'yicha har oyda hisobotlar taqdim etilishi lozim.

Shuningdek, umumbelgilangan ya'ni QQS solig'i to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida hududiy soliq boshqarmalarida **"Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish"** bo'limi tashkil etilib, har bir tarmoq bo'yicha **182,0 mingta** qo'shilgan qiymat solig'i

to'lovchilari **14 ta** sohaga ajratilgan holda ularga xizmat ko'rsatish uchun **902 ta** mas'ul xodimlar biriktirildi.

Ushbu xodimlarning asosiy vazifalari soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarining bajarilishida, jumladan, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, muddatida to'lanishi, soliq solish ob'ektlarini o'z vaqtida hisobga olinishi va jazo choralari qo'llanilishini oldini olish bo'yicha ko'maklashishdan iboratdir.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda ularning soliq to'lovchilar bilan ko'proq vaqt birga ishlashlari uchun vaqt ajratishlarini ta'minlash maqsadida **"DSB ma'murchiligi"** axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Mazkur tizim orqali soliq to'lovchilar tomonidan soliq ma'murchiligini ta'minlashda **42 ta** yo'nalishlarda (*hisobotlar taqdim etilishi, vakolatli organlar va soliq hisobotlari ko'rsatkichlaridagi farqlar, kommunal xizmatlardan foydalanib, tovar aylanmani "Nol" taqdim etganligi va h.k.*) yo'l qo'yilgan kamchiliklarni **avtomat tarzda** tahlil etgan holda soliq inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ro'yxati shakllantirib beriladi.

Bugungi kunda soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetida ularga biriktirilgan **soliq inspektori to'g'risidagi ma'lumotlar**, shuningdek korxona faoliyatiga oid kamchiliklar to'liq aks ettirilgan bo'lib, **kamchiliklarni mustaqil ravishda ko'rgan holda bartaraf etish imkoniyati yaratilgan.**

Shuningdek, faoliyat turiga tegishli sohaga oid yangiliklardan xabardor qilib borish maqsadida **telegram gruppalari tashkil etilib, zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlanib borilmoqda.**

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida ushbu bo'limga soliq xizmati organlarining eng namunali va eng tajribali xodimlari jalb etilib, **26 ta** mezonlar asosida ularning ish samaradorligini baholash bo'yicha **KPI tizimi** joriy etildi va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishgan xodimlar **rag'batlantirib borilmoqda.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi «Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-39-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-son qarorlariga asosan **tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi** joriy etilgan.

(Tadbirkorlik sub'ektlarining baholash me'zonlari 10 ta, qo'shimcha ball beruvchi me'zonlar 4 ta va kamaytiruvchi me'zonlar 9 ta, jami 23 ta).

Yuqori reytingli tadbirkorlik sub'ektlarida:

- Soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi;
- QQS summasi o'rni tekshiruvlarsiz 1 kunda qaytarib beriladi;
- "Faol tadbirkor" ko'krak nishoniga tavsiya etiladi;
- soliqlar bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summasi 3 kunda qaytariladi;
- tovar import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishda to'lanadigan QQSni o'zaro hisobga oladi.

Yuqorida qayd etilgan tizimning amaliyotga joriy etilishi soliq to'lovchilarning barqarorlik reytinglari oshishiga ham o'zining katta ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Davlatimiz Rahbari tomonidan mahallani joylarda muammolarni hal qiladigan institutga aylantirish, amaldagi "beshlikka" soliq va ijtimoiy himoya xodimlarini qo'shib, birgalikda ishlaydigan "mahalla yettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yilib, jami 9 445 ta mahallaga 4 368 nafar soliq xodimlari biriktirildi.

Mahallalarda soliq organlari faoliyati yuzasidan

I. 2024-yilning 1 yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar

a) Asosiy erishilgan ko'rsatkichlar:

1. Davlatimiz Rahbari tomonidan mahallani joylarda muammolarni hal qiladigan institutga aylantirish, amaldagi "beshlikka" soliq va ijtimoiy himoya xodimlarini qo'shib, birgalikda ishlaydigan "mahalla yettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha berilgan topshiriqlariga asosan 9 445 ta mahallaga 4 368 nafar soliq xodimlari biriktirildi.

Bundan tashqari, soliq organini hududlarda "Mahallabay" ishini tashkil etish bo'yicha soliq qo'mitasidan 14 nafar rahbar va xodimlar viloyatlarga biriktirilib, xizmat safari davomida mahallalarda soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarining kunlik nazorati yo'lga qo'yilgan.

2. Soliq organlariga yuklatilgan vazifalarni mahalla darajasida tashkil etish, mahallada daromadni oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, mahallalarga biriktirilgan soliq idorasi xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash uchun "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimi ishlab chiqildi. Bunda soliq inspektorining faoliyati samaradorligi 23 ta mezon orqali baholab borilmoqda.

3. Joriy yilning iyun oyida respublikaning samaradorlik ko'rsatkichi 88,7 ballni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich may oyida 94,0 ball, aprel oyida 92,2 ball, mart oyida 89,6 ball, fevral oyida 93,7 ball va yanvar oyida 87,3 ballni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yil yanvar oyida 31ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 696 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori (15,9%), 376 nafar 70-75 ball, 119 nafari 70 balldan past, fevralda oyida 103ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 1 119 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori (25,5%), 203 nafar 70-75 ball, 227 nafari 70 balldan past, martda oyida 95 ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 1 198 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori, 357 nafar 70-75 ball, 239 nafari 70 balldan past, aprelda oyida 130 ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 1 793 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori, 119 nafar 70-75 ball, 239 nafari 70 balldan past, mayda oyida 192 ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 2 820 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori, 44 nafar 70-75 ball, 8 nafari 70 balldan past hamda iyunda 100 ta inspeksiya 90,0 balldan oshgan bo'lsa, 1 617 nafar inspektor 90,0 balldan yuqori, 265 nafar 70 75 ball, 64 nafari 70 balldan past natijani qayd etdi.

4. Bo'sh turgan va uzoq muddat davomida foydalanilmayotgan 2 576 ta bo'sh bino va 528 ta yer uchastkalarini faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda amaliy yordam ko'rsatildi va natijasida 621 ta fuqaro YaTT sifatida, 2 003 tasi o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi ta'minlandi.

5. Soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirishga yaqindan yordam berish natijasidan 49 003 ta tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tiklandi.

6. Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolarning faoliyatini qonuniylashtirishga ko'maklashish orqali 94411 ta sub'ekt yangidan ro'yxatdan o'tkazildi.

7. 1 314,3 mingta fuqarolar o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi hisobiga aholiga bandligi ta'minlandi.

8. 107,7 mingta dehqon xo'jaligi ro'yxatdan o'tkazildi.

9. 456 nafar YaTTning faoliyati, shuningdek 4 598 ta o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyati YaTT va yuridik shaxs sifatida yiriklashtirildi.

10. Tizimni ishga tushirilishi natijasida byudjetga 277,0 mlrd so'm qo'shimcha manba jalb qilindi.

11. Bundan tashqari:

a) Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarning tovar aylanmasi yil boshiga nisbatan 2 272,0 mlrd so'mga;

b) Ishchilar soni yil boshiga nisbatan 282,0 mingtaga oshdi.

12. Aylanmadan olinadigan soliq tushumi 2024-yilning 6 oyligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 214,7 mlrd so'mga (119%) hamda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'i 1020,6 mlrd so'mga o'sishiga erishildi.

13. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha "nol" hisobot topshirganlar, soliq to'lovchilarning soniga nisbatan 49 foizdan 21 foizgacha kamaydi.

14. Joriy yilning yanvar iyun oylari davomida jismoniy shaxslarning mol mulk va yer solig'i bo'yicha turar joy ob'ektlari uchun 5 307 mlrd so'm (yil boshiga soliq qarzi 1 582,9 mlrd so'm, joriy yilga hisoblangan soliq 3 724,0 mlrd so'm) undirishga hisoblangan bo'lib, shundan, 1 857,8 mlrd so'm undirildi. Undirilgan soliqlar hisobidan 10 foizi 185,8 mlrd so'm mahalla byudjeti hisobiga to'g'ri keladi.

b) Kamchilik va muammolar:

1. Respublika bo'yicha mahallalar soni 9 445 ta bo'lib, 4 468 ta soliq inspektori biriktirilgan, xodim sonini yetishmasligi xisobiga ayrim tumanlarda 1 tadan 5 tagacha mahalla biriktirilgan. Bu esa ish unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda.

2. Haqiqatda faoliyat yuritmayotgan soliq to'lovchilar 9 oy davomida realizatsiya amalga oshirmagan bo'lsada, birgina "nol" hisobot topshirishi natijasida Vazirlar Mahkamasining 704-son qaroriga asosan faoliyat yuritayotganlar toifasiga kirib qolmoqda, bu esa mahalladagi soliq inspektorlarining samaradorlik ko'rsatkichiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Misol uchun, 2024-yilning mart oyida 92 788 ta, aprelda 72723 ta, mayda 63 731 ta hamda iyun oyida 53 898 ta soliq to'lovchi "nol" hisobot topshirgan.

II. 2024-yilning 2-yarim yilligida amalga oshiriladigan aniq reja va vazifalar

1. "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimini takomillashtirish.

Jumladan, Soliq to'lovchilar tomonidan soliq inspektorini baholash, soliq to'lovchilar tomonidan yo'llangan murojaatlarni ijrosi soliq inspektorini samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri etib belgilash.

2. Hududlarda mahallalarning imkoniyatini ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish hamda o'zini o'zi band qilgan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni kichik biznes toifasiga o'tishda ko'maklashish choralari ko'rish

3. Soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolarning faoliyatini qonniylashtirishda yaqindan yordam berish natijasida:

-49,0 mingta tadbirkorlik sub'ektini faoliyatini tiklash;

-94,0 mingta tadbirkorlik sub'ektlarini yangidan ro'yxatdan o'tkazdirish;

-100,0 mingta dehqon xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazdirish choralari ko'rish;

-1 200,0 ming nafar fuqaroni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazdirish

-aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarni tovar aylanmasini 2 500,0 mlrd so'mga oshirish

- aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha byudjetga 75,0 mlrd so'm qo'shimcha manba jalb qilish

-480 nafar yakka tartibdagi tadbirkorni faoliyatini yuridik shaxsga aylantirish

-o'zini o'zi band qilgan 4 600 nafar fuqaroni faoliyatini yiriklashtirish.

Soliq organlariga yuklatilgan vazifalarni mahalla darajasida tashkil etish, mahallada daromadni oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, mahallalarga biriktirilgan soliq idorasi xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash uchun "Mahallalarda soliq organlari faoliyati" axborot tizimi ishlab chiqildi. Bunda soliq inspektorining faoliyati samaradorligi 23 ta mezon orqali baholab borilmoqda.

Tizimni ishga tushirilishi natijasida joriy yilning o'tgan davr mobaynida byudjetga 277,0 mlrd so'm qo'shimcha manba jalb qilindi.

Bundan tashqari:

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarning tovar aylanmasi yil boshiga nisbatan 2 272,0 mlrd so'mga;

ishchilar soni yil boshiga nisbatan 282,0 mingga oshdi.

Aylanmadan olinadigan soliq tushumi 2024-yilning 6 oyligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 214,7 mlrd so'mga (119%) hamda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'i 1020,6 mlrd so'mga o'sishiga erishildi.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha "nol" hisobot topshirganlar, soliq to'lovchilarning soniga nisbatan 49 foizdan 21 foizgacha kamaydi.

Joriy yilning 1 fevral kuni o'tkazilgan xizmat yig'ilishida mahallaga biriktirilgan samaradorlik ko'rsatkichi past bo'lgan xodimlar tomonidan ko'tarilgan masalalar xaqiqatda o'zimizda yetarli kamchiliklar borligini ko'rsatib berdi.

Jumladan, Samarqand shahar soliq inspeksiyasi xodimi Babamuratov Baxtiyor (dastlab 67,5 ball) uning nazoratida bo'lgan Darg'om mahallasida AOSdan 503,0 mln.so'mlik reja noto'g'ri belgilanganligi va hududida bunday daromad manbalari mavjud emasligini ma'lum qildi.

O'tkazilgan o'rganishda, belgilangan reja topshiriqning 499,1 mln.so'mi "Karim Sallox Savdo" MChJ hissasiga to'g'ri kelgan.

Aslida jamiyatning QQS guvohnomasi 2021-yil 1-yanvarda bekor qilinib, AOS to'lovchisi bo'lgan bo'lsada, uning ShHVlari soliq ma'murchiligini yuritish uchun Samarqand shahar soliq inspeksiyasiga o'tkazilmasdan qolgan.

Oqdaryo tumani soliq inspeksiyasi xodimi Ergashev Shaxbozning (dastlab 67,2 ball) hududidagi 16 ta korxona daromad solig'i bo'yicha hisobot topshirish majburiyatiga ega emasligi, ya'ni buxgalteriyasi markazlashlashganini, undirilgan 17,0 mln.so'm yer va mol-mulk soliqlari axborot tizimida aks etmaganini ma'lum qildi.

Mazkur holatda, xodim tomonidan Soliq qo'mitasining 2023-yil 9-oktabrdagi 242-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yuridik shaxslarning faollik holatlarini yuritish va haqqoniyligini ta'minlab berish bo'yicha" ish Reglamentiga ko'ra 16 ta korxonaning faollik holatini o'zgartirish bo'yicha mas'ul tuzilmaga bildirgi orqali murojaat qilinmaganligi ma'lum bo'ldi.

Toyloq tumani soliq inspeksiyasi xodimi Akramov Najmiddin (dastlab 74,2 ball) tomonidan jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha undirilgan soliqlari axborot tizimida aks etmaganini ma'lum qildi.

Ko'tarilgan masalalar yuzasidan xodimlarning murojaatlari inobatga olinib, tezkor o'rganish va axborot tizimi ma'lumotlarini yangilash bo'yicha bergan topshirig'imdand so'ng, samaradorlik ko'rsatkichlari qaytadan tahlil qilindi.

Ma'lumot uchun, yanvar oyi samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha Xorazm viloyatida mehnat shartnomasi bekor qilinadigan hamda intizomiy jazo qo'llaniladigan xodimlar umuman aniqlanmadi.

Shuningdek, 90-95 ballik natijali xodimlarni ham amaldagi intizomiy jazo choralari bekor qilinishi bo'yicha takliflarini ma'qullab berdim va buning natijasida 208 nafar xodimning intizomiy jazo choralari muddatidan oldin olib tashlandi.

Bundan tashqari, Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi aralashuvi bilan 70 balldan past natija qayd etgan jami 119 nafar xodimdan 78 nafar (shundan, mehnat ta'tilida bo'lganlar 46 nafar, kasallik ta'tilida 15 nafar, boshqa asosli sabablar ko'rsatilgan 17 nafar) xodimning murojaati ijobiy hal etildi.

Joriy yilning yanvar oyida hududida yetarli ishlarni tashkil etmagan 41 nafar xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinishi belgilandi.

Xususan, Samarqandda 21 nafarni, Andijonda 6 nafarni tashkil etgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahrida 3 nafardan, Jizzax va Navoiyda 2 nafardan, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va QQRda 1 nafardan to'g'ri keldi.

- "Mahallabay" ishlash tizimi bo'yicha yillik va fevral oyi nazorat raqamlari axborot tizimiga yuklandi.

Shu sababli, yangicha tizim joriy etamiz ya'ni mahallaga biriktirilgan xodimlar nazorat raqamlarini ta'minlash bilan bir vaqtda hududida yangi sub'ektlar tashkil etish, norasmiy ishchilarni legallashtirish, tovar aylanmani oshirish hamda resurs (er, mol-mulk, suv) soliqlaridan qo'shimcha manbalar yaratish bo'yicha ish yuritadi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyatidan olingan daromadlariga soliq solish xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-son Qonuniga asosan Soliq kodeksining 369-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun quyidagicha soliq majburiyati belgilandi.

Xususan, 2024-yilning 1-yanvaridan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan kundan e'tiboran ushbu Kodeks maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solinishi belgilandi.

Ma'lumki, Soliq kodeksining 461-moddasining birinchi qismi 2-bandiga asosan soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar hisoblanishi belgilangan.

Shunga asosan soliq davrida mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga yuz million so'mdan oshgan kundan e'tiboran ushbu Kodeksning 467-moddasiga asosan 4 foizlik stavkada aylanmadan olinadigan soliqni to'lash lozim bo'ladi.

O'z navbatida ushbu shaxslar aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha har oyda jumladan, hisobot davri yakunlari bo'yicha - hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay hamda yil yakunlari bo'yicha - soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay hisobot taqdim etish majburiyati yuklanadi.

Bundan tashqari, soliq organi mas'ul shaxslarining funksional majburiyatiga qo'shimcha kiritish muammosni hal qiladi va ularni amalga oshirish mexanizmini rivojlantirib, uni takomillashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu moliyaviy majburiyatlarni ular tomonidan belgilangan tartibda bajarmaslik albatta, moliyaviy-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

1. MIB va sud ishi jarayonida bo'lgan soliq qarzdorligini maxalla inspektori yuklamasidan olib tashlash.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 704-son qaroriga 2-ilovasi 5-bandiga "to'qqiz oy mobaynida soliq hisobotlari taqdim etilmaganligi yoki "nol" hisobot topshirganligi" mazmunida o'zgartirish kiritish..

3. Xududda hujjatsiz tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan fuqarolarni dastur orqali anektani to'ldirish va Davlat xizmatlari markaziga yuborish mexanizmini joriy etish. Bunda Tadbirkorlikni qonuniylashtirish jarayoni soddalashadi va fuqaroni tadbirkorlik sub'ektiga o'tkazilishida soliq inspektori ko'maklashadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun to'lovlarni planshet orqali to'g'ridan-to'rg'i to'lash tizimini joriy etish.

4. Tadbirkorlik faoliyatini tugatish yoki tiklash istagida bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarni "Soliq mobil" ilovasida ma'lumotlarni shakllantirish uchun davlat xizmatlari anketasi shaklini yaratish. Bunda tadbirkor tomonidan STIR yoki JShShIRni anketaga kiritish orqali tugatish yoki rad etish tugmasini tadbirkorlik sub'ektining "FACE-ID" yoki "Barmoq izi" orqali tasdiqlash tizimini joriy qilish.

Adabiyotlar/ Jumepamypa /Reference:

Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi. - 640 b.

Kristina F.B. (2004) "The Informal Economy" march, Шведский Международный агентство сотрудничества развития SE-105 25 Стокгольма Швеция.

Андреева В.А. (2017) Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука /4 (14). стр.136-140.

Жалонкина И, (2012) "Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации". Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Кузнецов А.Л. (2016) Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.a.narod.ru/zhurnal>.

Покровский А.К. (2011) Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, -160 с.

Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.

Шумпетер Й. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шум- петер. М.: Изд-во Эксмо, -864 с.